INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIBBIYOT SOHASIDA INSON HUQUQLARINING MUHOFAZASI

Ilmiy rahbar: TDTU Ijtimoiy-gumatar fanlar kafedrasi

o‘qituvchisi **Ro‘ziyev Navro‘z Ixtiyor o‘g‘li**

Muallif: TDTU 1-son davolash fakulteti talabasi

Norqulova Zuhra Furqat qizi

norqulovazuhra28@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida tibbiyot sohasida inson huquqlarining huquqiy muhofazasi masalalari tahlil qilinadi. Inson huquqlarining tibbiyot tizimidagi ahamiyati, bemor huquqlarining mazmuni hamda ularning qonunchilik asoslari yoritib berilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida qonun, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalari asosida bemorlarning huquqlari va ularning huquqiy kafolatlari tahlil qilingan. Shuningdek, inson huquqlarining xalqaro huquqiy asoslari ham ko‘rib chiqilib, tibbiyot sohasida bemor huquqlarini ta’minlashning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar

Inson huquqlari, bemor huquqlari, tibbiy yordam, sog‘liqni saqlash, tibbiy sir, bemor xavfsizligi, huquqiy muhofaza, tibbiyot huquqi, sog‘liqni saqlash tizimi.

Kirish

Inson huquqlari zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Ular insonning hayoti, qadr-qimmati va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, har bir shaxsning munosib turmush kechirishi uchun zarur huquqiy asosni yaratadi. Inson huquqlari tizimida sog‘liqni saqlash va tibbiy yordam olish huquqi alohida o‘rin tutadi, chunki inson hayoti va salomatligi jamiyat rivojining eng muhim omillaridan biridir.Tibbiyot sohasida inson huquqlarini ta’minlash bemorlarning xavfsizligini kafolatlash, ularga sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish hamda shifokor va bemor o‘rtasidagi ishonchli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli sog‘liqni saqlash tizimida bemor huquqlarini himoya qilish nafaqat tibbiy, balki huquqiy jihatdan ham muhim masala hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida insonning sog‘lig‘ini saqlash va tibbiy yordam olish huquqi milliy qonunchilikda mustahkamlangan bo‘lib, bu huquqlar davlat tomonidan kafolatlanadi.

Inson huquqlari – bu insonning tug‘ilishidan to vafot etguniga qadar butun umri davomida unga hamrohlik qiladigan huquq va erkinliklardir. Ushbu universal huquqlar millati, jinsi, irqi yoki etnik kelib chiqishi, rangi, dini, tili yoki boshqa huquqiy maqomidan qat’i nazar, hech qanday kamsitishlarsiz barcha uchun xosdir. Inson huquqlari yashash huquqi kabi eng asosiy huquqlardan tortib, munosib turmush tarzini ta’minlashga xizmat qiladigan ta’lim olish, mehnat qilish yoki ijtimoiy ta’minot olish, tibbiy xizmatdan foydalanish kabi huquqlariga qadar barcha huquqlarni qamrab oladi.Tibbiyotda inson huquqlari bemorning shaxsiy hurmati va qadr-

qimmatini ta’minlash, xavfsizligini kafolatlash hamda sifatli tibbiy yordam olishini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Har bir bemor insonga xos hurmat va qadr-qimmatga ega bo‘lib, shifokor-bemor munosabatlarining asosini tashkil qiladi. Masalan, bemor roziligi olinmagan holda davolashni boshlash yoki uning shaxsiy ma’lumotlarini oshkor qilish qonuniy va etnik normalarga zid hisoblanadi (Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi qonun, 1996). Inson huquqlarini hurmat qilish bemor xavfsizligini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq. Bemorning xavfsizligi va sog‘lig‘i har bir davolash jarayonida birinchi o‘rinda turishi lozim. To‘g‘ri diagnostika, malakali tibbiy yordam va davolash usullarini bemor roziligida qo‘llash uning huquqlarini himoya qiladi va tibbiyot xizmatining sifatini oshiradi. Shuningdek, bemor huquqlarini hurmat qilish shifokor va bemor o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Agar bemor o‘z huquqlari himoyalanganini bilsa, u davolanish jarayonida shifokorga ochiq va ishonch bilan murojaat qiladi. Bemorga davolash usullari va variantlari haqida to‘liq ma’lumot berish tibbiyotda inson huquqlarini ta’minlashning muhim jihatidir.

Bemor huquqlari – bu har bir insonning tibbiy yordam olishda himoyalangan, qonun bilan kafolatlangan huquqlari bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: malakali tibbiy yordam olish, davolanishga rozilik berish yoki rad etish, shaxsiy ma’lumotlar va tibbiy sirni saqlash, shuningdek, shifokorni tanlash va o‘z sog‘ligi haqida to‘liq ma’lumot olish huquqi.

Insonning tibbiy huquqularining qonuniy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida insonning sog‘lig‘ini saqlash, malakali tibbiy yordam olish, shuningdek inson qadr-qimmatini hurmat qilish bilan bog‘liq normalar mustahkamlangan. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida insonning qadr-qimmati daxlsiz ekanligi belgilangan bo‘lib, hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka yoki shafqatsiz, inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga duchor etilishi mumkin emas. Mazkur norma tibbiyot sohasida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bemorlarga nisbatan insoniy munosabatda bo‘lish, ularning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishni va bemor ruxsatisiz tibbiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emasligi ta'kidlanadi.Shuningdek, Konstitutsiyaning 48-moddasida har bir shaxs sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy yordam olish huquqiga ega ekanligi mustahkamlangan. Davlat fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish hamda tibbiy xizmatlarning sifatini ta’minlash bo‘yicha zarur shart-sharoitlarni yaratishi belgilangan. Mazkur modda fuqarolarning tibbiy xizmatdan foydalanish huquqining konstitutsiyaviy kafolati hisoblanadi.

Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida qonunning 3-moddasida inson huquqlarini muhofaza qiluvchi bir qancha prinsiplar keltirilgan. Jumladan :

-sog‘liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi;

-aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo‘la olishi;

-profilaktika chora-tadbirlarining ustunligi;

-sog‘lig‘ini yo‘qotgan taqdirda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi;

Bundan tashqari qonunning 13-moddasi alohida e'tiborga molik hisoblanadi. Unda "Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar fuqarolarning sog‘lig‘i saqlanishini ta’minlaydi " deyilgan. Bu esa O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining sog‘liqni saqlash borasida daxlsiz huquqqa ega ekanliklarini

ko‘rsatadi.16-modda davlatning ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosatini aks ettiradi. Unga ko‘ra, surunkali kasallikka chalingan, nogironligi bo‘lgan yoki ijtimoiy ahamiyatga molik xastaliklar bilan og‘rigan shaxslar nafaqat tibbiy muolaja, balki ijtimoiy reabilitatsiya olish huquqiga ham egadirlar. Bu shunchaki dori-darmon bilan cheklanib qolmay, insonning jamiyatga qaytishi, o‘zini to‘laqonli his qilishi uchun zarur bo‘lgan parvarish va imtiyozli sharoitlarni kafolatlaydi. Davlat ushbu yordam turlarini moliyalashtirish va ularning hammabopligini ta’minlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.Mehnat faoliyati davomida inson sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillar mavjud sohalar uchun ushbu 17-modda muhim himoya qalqoni hisoblanadi. Qonunchilikka binoan, noqulay yoki xavfli mehnat sharoitlarida ishlovchi xodimlar uchun majburiy tibbiy ko‘riklar tizimi o‘rnatilgan. Bu jarayon kasb kasalliklarini barvaqt aniqlash va xodimning mehnat qobiliyatini saqlab qolishga xizmat qiladi. Eng muhimi, bunday ko‘riklar uchun sarf-harajatlar ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi, bu esa ishchining iqtisodiy manfaatlarini ham huquqiy jihatdan himoya qiladi.Nogironligi bo‘lgan shahslarning, voyaga yetmaganlar, xarbiy xizmatchilar,pensiya yoshidagi fuqarolarning huquqlari ushbu qonunda mustahkamlab qo‘yilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida"gi Qonunning xususan 24-moddasi, bemorlarning huquqiy maqomini belgilovchi asosiy hujjatdir. Bemor huquqlari — bu inson huquqlarining tibbiyot sohasidagi bevosita in’ikosidir.

1.Tibbiy yordam olish va tanlash huquqi: Har bir bemor o‘z xohishiga ko‘ra shifokorni va davolash-profilaktika muassasasini tanlash huquqiga ega. Bu raqobat muhitini shakllantiradi va xizmat sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bemor sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan sharoitlarda davolanishni talab qilishga haqli.

2. Ma’lumot olish huquqi (Informatsion huquq)

Bemor o‘z sog‘lig‘ining holati haqida to‘liq va tushunarli ma’lumot olishga haqli. Bunga quyidagilar kiradi:Tekshiruv natijalari va qo‘yilgan tashxis; Kasallikning rivojlanish prognozi; Tavsiya etilayotgan davolash usullari va ularning yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan xavf (risk) darajasi.

3. Tibbiy aralashuvga rozilik berish yoki uni rad etish

Insonning o‘z tanasiga nisbatan daxlsizligi qonun bilan himoyalangan. Har qanday tibbiy muolaja bemorning ixtiyoriy roziligi bilan amalga oshiriladi. Bemor davolashning istalgan bosqichida undan voz kechish huquqiga ega (hayotiga xavf tug‘diradigan, atrofidagilar uchun xavfli bo‘lgan ruhiy yoki yuqumli kasalliklar bilan bog‘liq istisno holatlardan tashqari).

4. Shifokor siri (Konfidensiallik)

Bemorning tibbiy yordam so‘rab murojaat qilganligi, uning sog‘lig‘i holati, tashxisi va shaxsiy hayotiga oid boshqa ma’lumotlar sir saqlanishi shart. Ushbu ma’lumotlar bemorning yoki uning qonuniy vakilining roziligisiz uchinchi shaxslarga (qonunda belgilangan maxsus holatlardan tashqari) oshkor qilinishi taqiqlanadi.

5. Insoniy qadr-qimmatni hurmat qilish

Bemor tibbiy yordam olayotgan vaqtda o‘ziga nisbatan insonparvarlik bilan munosabatda bo‘linishini, o‘zining madaniy va diniy e’tiqodlari hurmat qilinishini talab qilish

huquqiga ega. Shuningdek, og‘riqni qoldirishning barcha mavjud usullaridan foydalanish ham bemorning qonuniy huquqidir.

Fuqarolik kodeksi normalari tibbiyot sohasida inson huquqlari himoyasining iqtisodiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi. U bemorni shunchaki ob’ekt emas, balki o‘z huquqlari va manfaatlarini himoya qila oladigan munosabatlar sub’ekti sifatida belgilaydi.Shaxsiy nomoddiy ne’matlar muhofazasiga insonning sog‘lig‘ining muhofazasi ham bevosita taalluqlidir.Fuqaroning hayoti va sog‘lig‘i, shaxsiy daxlsizligi, sha’ni va qadr-qimmati unga tug‘ilganidan tegishli bo‘lgan va boshqa usul bilan boshqa shaxsga berilmaydigan ne’matlardir bu esa Fuqorolik kodeksining 99-moddasida o‘z aksini topgan. Fuqarolik kodeksining 1006-moddasi inson huquqlari himoyasining dinamik xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. U sog‘liqqa yetkazilgan zarar uchun to‘lanadigan kompensatsiya miqdorini cheklamaydi, aksincha, shartnomaviy munosabatlar yoki maxsus qonunlar orqali bemor manfaatlarini yanada kengroq himoya qilishga, tovon pullarini ko‘paytirishga huquqiy yo‘l ochib beradi.

O‘zbekiston qonunchiligida bemorning huquqlari nafaqat Fuqarolik kodeksi bilan, balki **Jinoyat kodeksi**ning 116-moddasi orqali ham qat’iy himoya qilinadi. Bu tibbiyot xodimlarining o‘z vazifalariga mas’uliyat bilan yondashishini ta’minlovchi eng kuchli huquqiy vositadir. 116-modda. Kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik. Unda Qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq kasalga yordam ko‘rsatishi shart bo‘lgan shaxsning uzrli sababsiz shunday yordam ko‘rsatmaganligi badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 141^1-moddasi shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini uning roziligisiz qonunga xilof ravishda yig‘ish yoki tarqatish uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydi. Tibbiyot sohasida ushbu norma bemorning tashxisi, sog‘lig‘ining holati va davolanish jarayoniga oid ma’lumotlarning (vrachlik sirining) daxlsizligini kafolatlaydi. Ushbu moddaning mavjudligi tibbiyot xodimlarining etik mas’uliyatini huquqiy majburiyatga aylantirib, insonning xususiy hayot daxlsizligiga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini himoya qiladi.Bundan tashqari bir nechta xalqaro hujjatlarni ham keltirish mumkin.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) Bu hujjatning 25-moddasi eng asosiysi hisoblanadi. Unda har bir inson o‘zi va oilasining sog‘lig‘ini saqlash uchun zarur bo‘lgan tibbiy yordam olish huquqiga ega ekanligi mustahkamlangan.

JSST (Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti) ning ustavida shunday deyilgan: "Sog‘liqning eng yuqori darajasiga erishish — har bir insonning irqi, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar asosiy huquqlaridan biridir".

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tibbiyot sohasida inson huquqlarining ta’minlanishi jamiyatda sog‘liqni saqlash tizimining samarali faoliyat yuritishida muhim ahamiyatga ega. Bemor huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish nafaqat tibbiy xizmat sifatini oshiradi, balki shifokor va bemor o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. O‘zbekiston Respublikasida insonning sog‘lig‘ini saqlash, malakali tibbiy yordam olish hamda shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilish bilan bog‘liq huquqlar milliy qonunchilikda mustahkam belgilangan. Xususan, O‘zbekiston

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index:* *google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida qonun, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalari orqali bemor huquqlarining huquqiy kafolatlari belgilab berilgan. Ushbu huquqiy mexanizmlar fuqarolarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish hamda inson huquqlarini to‘liq ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro hujjatlar ham insonning sog‘lig‘ini saqlash huquqi umumiy va ajralmas huquq ekanligini tasdiqlaydi. Shu sababli tibbiyot sohasida inson huquqlarini ta’minlash va ularni amalda himoya qilish sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.

2.O‘zbekiston Respublikasi Milliy inson huquqlari markazi rasmiy sayti.

3.Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida qonun. – O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 1996 (so‘nggi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).

4.O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent.

5.O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent.

6.Universal Declaration of Human Rights. – United Nations, 1948.

7.Constitution of the World Health Organization. – World Health Organization, 1946.